

O'ZBEK TILIDA FAMILIYALARNING IFODALANISH TARIXI

Shodmonqulova Orasta Bobir qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikdagi muhim tarmoqlardan biri onomastikaga oid familiyalar haqida, ularning davrlar osha o'zgarib borishi va bugungi hayotimizda qay shaklda ifodalanayotgani xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: familiya, antroponim, otasining ismi, nasab, sharif, -ov, xoqon, tigin

HISTORY OF EXPRESSION OF SURNAMES IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation: In this article, one of the important branches of linguistics is about surnames related to onomastics, their changes over time and how they are expressed in our life today.

Key words: surname, anthroponym, father's name, family name, -ov, khakan, tigin

ИСТОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ФАМИЛИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье одна из важных отраслей языкознания посвящена фамилиям, связанным с ономастикой, их изменениям с течением времени и тому, как они выражаются в нашей жизни сегодня.

Ключевые слова: фамилия, антропоним, имя отца, фамилия, шариф, -ов, хахан, тигин.

KIRISH

Bizga ma'lumki, tilshunoslikda onomastika sohasi salmoqli o'rin egallaydi. Nomshunoslik o'z ichiga kishi ismlari, laqab, taxallus, familiya kabi guruhlarini oladi. Bular orasidan familiyalar har bir shaxs uchun alohida ahamiyatga ega hisoblanadi, ya'ni ular bizga o'z oilamiz tarixi borasida ko'plab ma'lumotlarni ochib berishi mumkin. Aslida, familiyalar qayerdan kelib chiqqani yoki insonlar ulardan qachondan boshlab foydalanayotgani haqida hech o'ylaganmisiz? Bu borada turli qarashlarga to'xtalamiz.

Avvalo, familiya so'zining tub lug'aviy ma'nosini bilib olish lozim. Bu so'z Anglo-Normancha "surnoun" va fransuzcha "sornom" so'zlaridan kelib chiqqan, ular esa o'rta asrlardagi lotincha "supernomen" va "supranomen" so'zlaridan kelib chiqqan. (1,6)

Familiya lotincha "familia" so'zidan, aslyatda qullar, tobelar; xonadon; merosiy nom; avlod, oila kabi ma'nolarni anglatadi. Qadimgi Rimda bu so'z bir xo'jayinga

tegishli qullarni, keyinchalik xo'jayinning oilasi va qullarini, vaqtlar otib esa bir oila boshlig'i, uning qondoshlari va yaqinlaridan iborat jamoani

Yevropada familiyalar o'rta asrlarda keng tarqalgan, chunki populyatsiyalar ko'paydi va odamlar qo'shimcha identifikatorlarga muhtoj edi. Xitoyda familiyalar ming yillar davomida ishlatilgan, eng qadimgi qayd etilgan holatlar qadimgi sulolalarga tegishli.

Bugungi tushunchadagi familiya X-XI asrlarda Shimoliy Italiyaning iqtisodiy rivojlangan viloyatlarida paydo bo'lgan. Keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham familiyalar urfga kirgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa quyidagicha ta'riflanadi: "Familiya (lot. familia - qullar, to'belar; xonadon; merosiy nom; avlod, oila) - ota-ona yoki bobo ismidan yasaliib, shaxs ismiga qo'shib aytiladigan, nasldan naslga o'tadigan oilaviy nom. (3)

Demak, familiya kishining ajdodlari va oilasi bilan bog'liq tushuncha ekan.

O'zbek tilida, asosan, kishi otasining ismini o'z farzandiga familiya sifatida tanlaydi. Ammo bugungi kunda kishilar o'zlarining ismlarini familiya sifatida ishlatishayotgani ham uchraydi. Masalan, Eldor ismli shaxs qiz farzand ko'rgach, uning familiyasini otasining nomi bilan emas, o'zining nomi bilan Eldorova deb ataydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizning tilimizda familiyalar har doim ham bu ko'rinishda mavjud bo'lmagan. Hozirgi davrga qadar ular turli zamonlarda turli shakllarda qo'llangan. Ularni eng qadimgi turkiy til davridan boshlab ko'rib o'tamiz.

Qadimgi turkiy til davrida, ya'ni V-VI asrlarda shaxs nomlari qay holda bo'lganini o'sha davr hayotini aks ettiruvchi manbalar-bitiktoshlar orqali bilish mumkin. Ular ichida eng mashhurlari bo'lgan Bilga xoqon, Kultigin va To'nyuquq bitiktoshlarida bir qancha antroponimlarning mavjudligi hech kimga sir emas. Bitiktoshlardagi shaxs nomlari tarkibida xoqon, tigin, tarxon kabi so'zlar familiyani ifodalash uchun qo'yilganini ko'rish mumkin. Ya'ni ular ism bilan emas, balki o'sha shaxsning unvoni bilan ifodalangan. Bunday deyishimizga sabab, Eltarish xoqon, Bilga xoqon, Bumin xoqon, Istami xoqon kabi nomlardagi "xoqon" so'zi ularning hukmdorlik unvoni hisoblangan. Bundan tashqari Kultigin, Yo'llug' tigin kabi ismlardagi "tigin" so'zi ham qadimgi turkiy tilda "shahzoda" ma'nosini anglatib, shoh farzandlarini nomlash vazifasini bajargan. (4)

Ajablanarli tomoni shundaki, ushbu "xoqon", "tigin" so'zlari ba'zi o'rinlarda bosh harf bilan yozilgan, bu esa ularni nom sifatida qo'llanganini ko'rsatadi. Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asarida esa Alp Er To'nga ismiga duch kelamiz. Demak, bu paytlarda nomlar qisqa va lo'nda, otlarga qo'shiladigan qo'shimcha so'zlar esa sifat, unvon va nisbalardan iborat bo'lgan. Alp Er To'nga «yo'lbars kabi kuchli bahodir» degan ma'noni bildiradi.

VII-VIII asrlarda arab bosqinchilari Movarounnahrda istilochilik yurishlarini amalga oshirgandan so'ng antroponimlar ham turli o'zgarishlarga uchradi. Endilikda

tub aholi orasidagi erkaklar ismiga “abu” va “ibn” soʻzlari qoʻshildi(abu-ota,ibn-oʻgʻil).Ayollar ismlaridan oldin “qizi” degan maʼnoda “binni” yoki “binti” ishlatiladigan boʻldi.Abu Ali ibn Sino,Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy kabi ismlarni bunga misol qilishimiz mumkin.Bu holat hozirgi otasining ismini qoʻshib aytishga oʻxshaydi.Yaʼni hozirda Anvar qizi yoki Anvar oʻgʻli kabi.Arablar bosqini davrida otasining ismi turli laqablar,tugʻilgan joy ,jismoniy xususiyatlariga koʻra qoʻyilgan.Fazlulloh Samarqandiy samarqandlik,al-Fargʻoniy fargʻonalik,al-Xorazmiy xorazmlik boʻlgani uchun shunday atalgan.

Keyingi davrlarda,yaʼni XVIII-XIX asrlargacha koʻplab shoir, olim,ijodkorlar familiya sifatida taxallus qoʻllashgan. Bunga misol qilib,Alisher Navoiy,Nizomiy Ganjaviy,Muhammad Aminxoʻja Muqimiy,Jahon Otin Uvaysiy kabi nomlarni olish mumkin.

XVIII-XIX asrlarda,yaʼni jadid adabiyoti davrida familiya oʻrnida ota ismi qoʻllash holatlari uchraydi.Masalan,Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli,Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli kabi.Ammo yurtimizga rus bosqinchilari yurish qilgach, rus tili taʼsirida familiyalar tarkibida ham oʻzgarishlar boʻldi.Shoʻro hukumati davrida yuritilgan siyosat tufayli oʻzbek familiyalarini hosil qilishda rus tilidagi -ov,-ova,-yes,-yeva qoʻshimchalaridan foydalana boshlandi .(Fayzulla XoʻjayevAbdulla Oripov,Svetlana Osipova va hokazo).

Bu shakl istiqlolgacha toʻliq saqlanib qoldi.Yurtimiz mustaqillikka erishgandan soʻng ham rus tiliga mansub affikslar familiyalar tarkibidan chiqib ketmadi.Chunki bir asrdan oshiq vaqt davomida qoʻllangan shaklni birdaniga yangisiga almashtirishga xalq koʻnika olmas edi.Bundan tashqari,oʻsha vaqtda barcha uchun mos keladigan muqobil variant ham mavjud emas edi.Mustaqillik eʼlon qilingandan soʻng familiya tanlashda fuqarolarga erkinlik berildi,shuningdek ota ismini yozishda ham.Ota ismini ifodalovchi -ovna,-ovich,-yevna kabi birliklar ham qisman “oʻgʻli” va “qizi” soʻzlariga oʻzgartirildi.Ammo,oʻz holicha qolganlari ham yoʻq emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Endi mustaqillikning dastlabki yillarida kishilar qanday familiyalarni tanlaganiga toʻxtalsak.Bu davrda koʻplab yurtdoshlarimiz bolalarining nomini oʻgli,qizi soʻzlari bilan shakllanishiga moyillik bildirdi.Biroq,bu usul ham barcha uchun birdek qabul qilingani yoʻq.

Ayrim fuqarolar esa hech qanday qoʻshimchalarsiz ism va ota ismi yoxud bobosi ismidan iborat shaklni afzal koʻryapti(Rauf Parfi, Zebo Mirzo,Boʻtabek Oʻtkir kabi).

Bundan tashqari,ziyolilar orasida ism va tugʻilgan joy nomi,ism yoki urugʻ,qabila nomidan tashkil topgan familiyalarni qoʻllash ham uchraydi(Xurshida Sattorzoda....).

Afsuski,bularning hech biri kishilar orasida odat tusiga kirgani yoʻq. (1)

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki,bu yoʻnalish hozirgacha toʻliq oʻrganilmaganligi tufayli tilshunoslar uchun dolzarb vazifalardan sanaladi.Oʻzbek familiyalarining barcha uchun maʼqul,umummilliy muqobilini izlab topish va uni rasman

joriy etish eng muhim amaliy muammolardan biridir. Ushbu sohada tadqiqot uchun hali bir qancha masalalar borligi uchun ushbu mavzuni o'rganishda davom etishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. "Fan", 2013
2. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi, T., 1998. - 604b.
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati", 4-jild. 323-324-b.
4. Sodiqov Q. Kultigin va Bilga xoqon bitiklari: matnlarning o'qilishi va talqinlari
5. Begmatov E., Kenjayeva S. O'zbek ismlari ma'nosi // O'quv izohli lug'at. - Toshkent: Fan, 2007.
6. G. Redmonds (2002) "Surnames in Genealogy: A new Approach", Federation of Family History Societies.
7. arxiv.uz